

PRAGMATIKA - TILSHUNOSLIKNING MUHIM BO'G'INI

Azimjonova Malohat Dilshod qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, magistratura 2-kurs

Ilmiy rahbar: Yartseva Svetlana Vladimirovna

Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7925861>

Annotatsiya: Tilshunoslik, o'zining ichki tabiati va xususiyatiga ko'ra, shubhasiz, ko'plab sohalarni o'zida jamlaydi. Shunday sohalardan biri pragmatikadir. Tilshunoslik va pragmatika o'rtasidagi aloqa anglashilmas darajada namoyon bo'lishi mumkin, ammo bu ikki sohani yaqindan o'rganish ularning ahamiyatli tomonlarini namoyon qiladi.

Kalit so'zlar: Pragmatika, tilshunoslik, metod, xorijiy til, nutq, til vositalari, matn, og'zaki nutq Yurtimizda olib borilayotgan islohatlarda «Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish» ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi jahonning rivojlangan mamlakatlarida ilm-fan va texnika sohasining so'ngi yutuqlaridan mamlakatimiz yoshlarini bohabar etishda adekvat tarjimashunoslikni amalga oshirish va buning uchun tilshunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri sifatida ko'riladi.

O'zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshiriladigan tarjima jarayoni, uning o'ziga xos xususiyatlari, unda tarjimon ahamiyat berishi lozim bo'lgan masalalar, tilshunoslikda asliyatning pragmatik xususiyatlari va uni qayta tiklashning o'ziga xosliklari, ish faoliyatida tarjimonga yengillik berishi mumkin bo'lgan jihatlar va u yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldi olinadi.

Pragmatika (yunoncha pragma, pragmatos - ish, harakat) - semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Charlz Sanders Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Charlz Uilyam Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va " Pragmatika " terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq qolda ham ko'plab masalalar o'rganiladi. Pragmatika g'oyalari evristik

(yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasini, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanadi.

Har bir tarjima jarayonida ma'no kasb etuvchi gaplar va tagma'noga ega so'zlar sifatida ikki bosqichdan o'tadi. Shunday bo'lsada toki nutq faoliyatining madaniyatlararo shakli mavjud emas ekan tarjimon uchun Tilshunoslikning pragmatik muammolari ham mavjud bo'ladi.

Shunga ko'ra, tarjimon ma'lumotni tilshunoslikda hech qanday xatoliksiz to'g'ri etkazib berish uchun umummadaniy pragmatik bilimlaridan foydalanishiga to'g'ri keladi. Nutq hodisasi va emotsional ta'sirni yaqindan o'rganish tabiiyki, tilshunoslikning bir nechta nazariyalarini keltirib chiqaradi, ayniqsa ekvivalent ta'sir yoki harakat prinsipiga va boshqa tilda qanday bo'lsa shunday aytish kerakligini ta'kidlovchi «yolg'on talqin»ga asoslangan dinamik ekvivalentlik. Har ikkala nazariya ham nutq faoliyati va hodisasi madaniyatlararo farq qilishini tan olgan holda tarjimonlarni madaniyatlararo pragmatik muvaffaqiyatga erishishga undaydi. Ammo tilshunoslikda pragmatik ekvivalentlikka erishishda aslyatdagi matn tilining semantik xususiyatlari, so'zlarning ma'nolari, ularning qo'llanilishi va boshqa so'zlar bilan bog'lanishi bir qancha to'siqliklarni keltirib chiqaradi [3].

Tilshunoslikning aslyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o'z tilida asly monand lisoniy vositalar tanlab ishlata olishidir. Bu mas'uliyat uning zimmasiga avvalo aslyat ma'no vazifasini bekamu- ko'st ado etish, so'ngra xotirasida shakllangan fikrni o'z tili madaniyati va me'yori asosida to'la-to'kis ifoda etish vazifasini yuklaydi.

Keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilib kelayotgan tilning pragmatik jihatlari tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko'pgina boshqa fanlar, madaniyatlar ma'lumotlaridan ham xabardor bo'lishni talab qiladi. Tilshunoslikda pragmatik vositalardan o'rinli foydalanish esa aslyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to'la-to'kis etkazib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur dissertatsion ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tilshunoslikning pragmatik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularning tahlilini, tilshunoslikda berilishini, asosli misollar bilan yoritilgan bo'lib mavzu bo'yicha talabalar uchun qo'shimcha yoki asosiy qo'llanma sifatida o'zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma'ruza matnlariga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin.

Bundan tashqari o'rganilgan korpus bilimlarni amalda qo'llash, tilshunoslikning pragmatik xususiyatlaridan foydalanib tarjima jarayonida uchraydigan har qanday leksik-grammatik muammolarni bartaraf qilish, shuningdek, nutq, badiiy asarlarda duch kelingan muammolarni tahlil qila olish tadqiqotning amaliy ahamiyatini tashkil etadi.

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va nonverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarida ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi. Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish,

to'liqlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi.

So'zlovchi biror nutq yaratar ekan, u o'zining bu faoliyati bilan qabul qiluvchiga (tinglovchi) qandaydir axborotni etkazishni, kechmishlarini bayon etishni, atrofimizda kechayotgan yangiliklarni etkazishni nazarda tutadi. Bu orqali so'zlovchi retseptorga ma'lum ta'sir ham o'tkazadi. Retseptorga nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir pragmatik xususiyatlar orqali amalga oshiriladi.

Asliyatdagi pragmatika yordamida nutqdagi axborot retseptorning oliy nerv sistemasiga etkaziladi va bu erda tegishli sezgilar orqali qabul qilinib ta'sirlanish yuzaga keladi. Birgina pragmatikaning o'ziga shuncha vazifa yuklangan ekan, uni tilshunoslikda ifoda etmaslik bu asliyatni qayta yaratish emas, balki uni yo'qqa chiqarish demakdir.

Agar biz biror mavzu yuzasidan qilinayotgan ma'ruzani tinglasak-da, ammo uning mazmuniga tushunmasak, bu ma'ruza biz uchun qiziqlik darajasini yo'qotadi va biz undan zerika boshlaymiz. Xuddi shunday, agar Tilshunoslikda pragmatika bo'lmasa, biz uni tushuna olmaymiz va notiq nutqiga noto'g'ri baho berib uning nutqiga, fikrlariga qiziqmay qo'yamiz. Demakki, pragmatikaning ahamiyati nafaqat Tilshunoslikda, balki asliyatda ham juda muhimdir.

Til birliklarining uslubiy bo'yoq kasb etish xususiyati turli tillarda uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Tillarning bunday xususiyati leksik vositalarni tanlash to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Tilshunoslikning bunday tahlili mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitadi.

Badiiy adabiyotlarda pragmatikaning birinchi vazifasi kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatishdir. Agar asliyatdagi pragmatik ta'sir tarjimada mavjud bo'lmasa, u kitobxonda hech qanday reaksiya uyg'ota olmasa, demak, asliyatning pragmatik xususiyati qayta yaratilmagan va bunday Tilshunoslik hech qanday qiymatga ega emas.

Amaliy tilshunoslikning pragmatik maqsadi tinglovchiga ko'zda tutilgan kommunikativ ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi. Tilshunoslikda qayta tiklanadigan kommunikativ effekt asliyatning asosiy vazifasining qayta tiklanishidir. Badiiy asarning kitobxonga ta'sir kuchi matnning syujeti, mazmuni, badiiy qimmati, o'ziga ko'plab kitobxonlarni jalb qila olishi bilan belgilanadi. Bunday badiiy matn tilshunoslikning pragmatik vazifasi tilshunoslik tili matnida ham asliyatdagidek, kitobxonga badiiy-estetik ta'sir ko'rsata oladigan matn yarata olishdir.

Ma'lumki, ilmiy-texnik matnlarning asosiy vazifasi ta'sir o'tkazish emas, balki axborotni etkazishdir. Bu o'rinda bunday matn tarjimasining ham bosh vazifasi xuddi shunday bo'ladi va tilshunoslikda pragmatikaning roli asliyatdagi axborotni to'g'ri va aniq etkazish hisoblanadi. Ba'zan shunday holatlar ham kuzatiladiki, tilshunoslikda zarur bo'lgan ilmiy-texnikaviy axborot undan mutaxassislar foydalanishi uchun asliyatdagiga nisbatan yanada tushunarliroq, aniqroq shakllarda bayon qilingan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tilshunoslik asosiy pragmatik maqsadni asliyatdan ko'ra yaxshiroq amalga oshirgan bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, pragmatik xususiyatlarning tilshunoslikdagi ahamiyati va roli juda muhimdir. shu bois tarjimonlardan asliyatning pragmatik xususiyatlarini to'g'ri va haqqoniy yoritish talab etiladi.

Yuqoridagilarni umumiy qilib aytadigan bo'lsak, tilshunoslikda pragmatikaning roli va ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, o'zga tilda yozilgan matn mazmunini tushuntirish;

Ikkinchiidan, retseptorga ta'sir o'tkazish; bu ham o'z navbatida quyidagilarga bo'linishi mumkin:

- a) Ijobiy ta'sir
- b) Salbiy ta'sir
- c) Neytral

Uchinchiidan, ma'lum axborotni to'g'ri etkazish;

To'rtinchiidan, madaniy tafovutlarni ta'riflash va ularni o'rganish. Pragmatika esa faqatgina madaniy tafovutni ta'riflabgina qolmay, balki uni o'rganadi ham. Shu narsani yodda tutish lozimki, pragmatika tilshunoslik bilan almashtirib bo'lmaydigan sohadir. Ammo ularni bir-biridan mutlaqo ajratib ham bo'lmaydi.

References:

1. Qobulova, N. J., Abdumutalibov, J., & Akbarov, A. (2022). ISHLAB CHIQRISH KORXONASIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMI (MXBT) NI TAHLILI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(6), 218-223.
2. Кабулова, Н. Д., Ходжакулов, М. Н., & Рахимов, Д. Б. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Universum: технические науки, (7-1 (88)), 14-17.
3. Халматов, М. М., Исмаилходжаев, Б. Ш., Кабулова, Н. Ж., & Хусанов, Д. Д. (2021). ГЕОФИЗИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ АТМОСФЕРНЫХ ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ В АНДИЖАНЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ АЭРОДИНАМИКИ. Universum: химия и биология, (6-1 (84)), 30-34.
4. Goto, N., Shibata, Y., Rahmatillayev, J., Qobulova-tfd, N., Atajonova, S., Turg'unova, N., & Toxirov, A. Xorijiy hamkorlar ishtirokida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plamining TAHRIR XAY'NATI.
5. Jalilovna, K. N., & Sattarovna, J. M. (2022). Procedure for Investigation and Accounting of Accidents in the Process of Activity in Production. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 200-204.
6. Бекташев, И. Б., Юсупов, К. А., Жуманова, М. С., Юлдашева, Г. Т., & Мухтаров, З. М. (2020). ОСОБЕННОСТИ АНТИБАКТЕРИАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ ТУБЕРКУЛЕЗА ЛЕГКИХ У ВИЧ-ИНФИЦИРОВАННЫХ БОЛЬНЫХ. Форум молодых ученых, (12 (52)), 80-84.
7. Maxsudaxon, J. (2022). PROCEDURE FOR INVESTIGATION AND ACCOUNTING OF ACCIDENTS IN THE PROCESS OF ACTIVITY IN PRODUCTION. Universum: технические науки, (6-6 (99)), 48-50.
8. Kuchkarova, C. H., Nizamova, U. S., Abdullaev, S., & Madrakhimova, G. A. (2019). The High Water Plants Water Road in Cleaning. Annual Research & Review in Biology, 1-5.
9. Kuchkarova, C. H. (2019). NATURAL DISTRIBUTION OF THE ALGAE PLANT OF THE TREATMENT OF TELEAROSOVODIS, SYSTEMATIC PLACE AND SEPARATE BIOLOGICAL FEATURES. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), 117-124.

10. Yo'ldashev, A., & Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VA EKOLOGIK OFAT HOLATLARIDA KORXONALAR BOSHQARUVI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(13), 269-275.
11. Jalilov, A. (2022). MODEL FOR IDENTIFICATION AND ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE ACTIVITIES OF OFFICIALS OF THE NATIONAL ACTION AND MANAGEMENT CENTER. Science and Innovation, 1(7), 286-294.
12. Yo'ldashev, A., & Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VA EKOLOGIK OFAT HOLATLARIDA KORXONALAR BOSHQARUVI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(13), 269-275.
13. Jalilov, A. (2022). MODEL FOR IDENTIFICATION AND ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE ACTIVITIES OF OFFICIALS OF THE NATIONAL ACTION AND MANAGEMENT CENTER. Science and Innovation, 1(7), 286-294.
14. Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH VA BOSHQARISH MILLIY MARKAZI MANSABDOR SHAXSLARI FAOLIYATIDAGI MUAMMOLI MASALALARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH MODEL. Science and innovation, 1(C7), 286-294.
15. Jalilov, A. (2023). «FVHQ VA BMM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MODEL. © ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»
16. Jalilov, A., Нилуфар, К., & Xalmatov, M. (2023). WAYS TO IMPROVE THE EFFECTS OF HEAVY METALS IN THE ATMOSPHERE ON LANDSCAPE TREES AND SOILS. © ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».
17. Jalilov, A., & JALILOV, A. (2022). O'zbekiston respublikasi atrof-tabiiy muhit va ekologiyaning yomonlashuvi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish muammolari.
18. Madaminjonovich, Q. H. (2022). AHOLI ZICH YASHAYDIGAN HUDUDLAR EKOTIZIMLARI BOSHQARUVI: QURILISHDA ATROF-MUHITNI BOSHQARISHNING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.
19. Sotvoldiyevich, A. R. (2021). Family Ceremonies In Connection With Funeral (On The Example Of The Karakalpak Of The Fergana Valley). Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
20. АТАХАНОВ, R. (2023). ФАРФОНА ВОДИЙСИ ПОЛИЭТНИК ТАРКИБИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.
21. Атаханов Р. С. ФАРФОНА ВОДИЙСИ ПОЛИЭТНИК ТАРКИБИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 27-31.
22. АТАХАНОВ, R. (2022). МАТЕРИАЛЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ПОХОРОННО-ПОМИНАЛЬНОЙ ОБРЯДНОСТИ КАРАКАЛПАКОВ ФЕРГАНЫ: ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ (НА ОСНОВЕ ПОЛЕВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ). Ошского государственного педагогического университета.
23. Рахимов, А. Ю., Абдурахмонов, А. А., & Сулаймонов, Ш. А. (2015). Изучение состояния использования ваты-сдира и пути повышения качества коконного сырья. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (4), 152-157.
24. Abdurashid, A. (2023). Efficient Method Of Biogas Production. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 17, 28-34.

25. Abdurakhmonov, A. THE CONCEPT OF NATURE AND HEROES IN "ROCKS ALSO CRY". EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 1, 481.
26. Abdurakhmonov, A. A., & Dadabayeva, N. A. PREVENT SERIOUS INFECTIOUS DISEASES AND THEIR SPREAD PRECAUTIONARY MEASURES.
27. Tursunov, X. T., & Rahimova, T. U. (2006). Ekologiya.
28. Jalilovna, Q. N., Rustamjon o'gli, Y. D., Xosiljon o'g'li, M. J., & Isroiljonovich, I. O. (2021, January). HIMOYA GAZLARI MUHITIDA PAYVANDLASHDA MEHNAT MUHOFAZASI. In Archive of Conferences (Vol. 13, No. 1, pp. 47-48).
29. Yusupov, I. I., Qobulova, N. J., Xojiev, A. A., & Vaxobov, A. (2020). TO REDUCE GLOBAL CLIMATE ISLAND FOCUSED LOCAL COOPERATION. Theoretical & Applied Science, (11), 501-507.
30. Кобулова, Н. Ж., & Нарзиев, Ш. М. (2021, December). ХОДИМЛАРНИНГ МЕХНАТИНИ МУХОФАЗА ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ. In Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости (p. 485).
31. Кабулова, Н. Ж. (2020). Традиционно-национальный узбекский головной убор мужчин (тюбетейка-дуппи) ферганской долины. Universum: технические науки, (8-2 (77)), 10-12.
32. Матрасулова, Н. И. (2022). СОСТАВ И СОРБЦИОННЫЕ СВОЙСТВА НАТУРАЛЬНОГО ШЕЛКА. ТЕСНика, (1 (9)), 11-14.